SALJUQIYLAR DAVLATIDA OLTUNJON XOTUNNING ROLI
THE ROLE OF THE OLTUNJON KHATUN IN THE SELJUK STATE

Usmonov Abdullajon
O'zR FA Tarix instituti kichik ilmiy xodimi
usmonovabdullajon500@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Saljuqiylar davlatining siyosiy hayotida Oltunjon xotunning roli va o'rni yoritilgan. Maqola tarixshunoslik va manbashunoslik nuqtai-nazaridan yozildi.

Kalit so'zlar: Saljuqiylar davlati, To'g'rulbek, Oltunjon xotun, Shohmalik, Anushervon, Ibrohim Yinal, xotun.

Annotation: The article describes the role and place of Oltunjan Khatun in the political life of the Seljuk state. The article was written from the point of view of historiography and source studies.

Key words: The state of the Seljuks, Togrulbek, Oltunjan Khatun, Shahmalik, Anushervan, Ibrahim Yinal, Khatun.

Azaldan turkiy xalqlarda ayollarning o'rni kuchli bo'lgan. Xususan, Turk xoqonligida hujjatlar va boshqa yozma manbalarda so'z boshi "Xoqon va xotun buyrug'i" deb boshlanishi bilan yoki Turk xoqonligi davriga oid tangalarda xoqon bilan birgalikda malika(turklarda hukmdor ayoli xotun deb yuritilgan)ni ham tasviri tushirilgani ularning davlatdagi roli muhimligini ko'rsatib beradi.

Saljuqiylar davlatida ham ayollarning roli va o'rni katta bo'lgan. Xususan, Sulton To'g'rulbek muhim masalalarda xotini Oltunjon xotun bilan maslahatlashardi. Saljuqiylar tomonidan ayollarga ko'rsatilgan hurmat misolida: To'g'rulbek xalifaning qiziga uylangach, xalifa ziyorat uchun sulton huzuriga kelganida xalifaning qizi sulton yoniga o'tiradi. Bu ishi uchun xalifa qizini jazolamoqchi bo'lganida, sulton xotinini yonida o'tirishini buyurib masalini o'zi hal qilganini ko'rsatish mumkin[103]. Bundan tashqari xotunlar (sulton ayollari) sulton bilan birga bir shaharda yashaydimi yoki yo'qmi ularning tasarrufida kichik xarbiy va boshqaruv tashkiloti, maxsus xazina, alohida vaziri va amaldorlari bo'lgan. Bulardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, turkiy hukmdorlar, ayniqsa saljuqiy sultonlar ayollarga alohida ehtirom ko'rsatib, davlatni boshqarishda ularga suyanganlar.

Saljuqiylar davlatining siyosiy hayoti va tarixi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan Oltunjon xotunning To'g'rulbek bilan turmush qurishdan oldingi hayoti haqida bizda juda kam ma'lumot bor. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, u avval Xorazmshoh

[103] AKSOY, İlhan "Toplumsal Ve Siyasal Süreçte Türk Kadını", Yasama Dergisi, s. 16

bilan turmush qurgan, lekin u yoshligida Horazmshoh vafotidan so’ng beva qolgan va Xorazmshohdan Anushervon ismli o’g’il ko’rgan edi.

Xarazmshoh Altuntoshning o’g’li Horun 1030-yilda G’aznaviylar davlati sultoni Mahmud vafotidan so’ng uning o’rniga sulton bo’lgan Masudga qarshi chiqib, isyon ko’taradi. Bu vaqtda Buxoro va Samarqand orasidagi Nur qishlog’idan Xorazm chegarasigacha kelgan To’g’rul, Chag’ri va Ibrohim Yinal boshchiligidagi saljuqiy turkmanlari Horun uchun Masudga qarshi kurashda muhim harbiy kuch edi. Shu sababli Xorun saljuqiylar bilan Sulton Masudga qarshi hamkorlik qiladi[104]. Uning maqsadi Xurosonni egallash rejasida saljuqiy otliq qo’shinlaridan yetakchi kuch sifatida foydalanish edi. Saljuqiylar Horunga yordam berishga tayyor edilar. Ammo Jand hokimi Shohmalik Masud bilan ittifoq tuzib, Horunga hujum qiladi va 1034-yil noyabr oyida Horunni mag’lubiyatga uchratadi. Bu mag’lubiyatdan so’ng xorazmshoh Horun Shohmalik bilan kelishib, uni saljuqiylar bilan murosaga keltirishga harakat qildi, ammo buning uddasidan chiqa olmadi. Shundan so’ng Horun saljuqiylarni qaytadan Shohmalik va Masudga qarshi kurashga undaydi. 1035-yil may oyida Horun Gurganchdan chiqib, Xorazmdan 5-6 farsax uzoqlikda uni kutib turgan saljuqiy qo’shinlari bilan uchrashish uchun ketayotganida, vaziyatdan xabardor bo’lgan G’aznaviylpr sultoni Masud tomonidan uyushtirilgan suiqasd natijasida o’ldiriladi.

Oltunjon Xotun 1035-yilda xarazmshoh Horunning o’limi natijasida beva qolgan. Xorazm ahli Horunning ukasi Ismoilni xarazmshoh deb e’lon qilgan bo’lsa-da, sulton Masudning Xorazm hududini Shohmalikka berdi. Buning natijasida Shohmalik 1041-yilgacha, ya’ni Chag’ribek tomonidan mag’lubiyatga uchrab Xorazm hududi saljuqiylar qo’liga o’tgunicha Xorazmni boshqardi va shu yillar davomida Oltunjon xotun ham uning ayoli bo’lgan. Xorazmni boshqarish keyinchalik To’g’rulbek tomonidan Amidulmulk Kundoriyga topshirildi. Shohmalik o’ldirilgach, To’g’rulbek uning bevasi bo’lgan Oltunjon xotunni aqqli, dono va go’zal axloqli ayol bo’lgani uchun o’ziga xotinlikka oldi[105].

To’g’rulbek rafiqasi Oltunjon xotunni qattiq hurmat qilar, har bir masalada uning fikrini so’rardi va uni tinglardi[106]. Shu sababli Oltunjon xotun saroy ayollari orasida alohida hurmatga sazovor bo’lgan deb xulosa qilishimiz mumkin. Abu Faraj ham Oltunjon xotun haqida shunday deydi: "U eri tomonidan nihoyat darajada sevilgan va bu ayol saltanatning barcha ishlarini boshqargan"[107].

Oltunjon xotun Saljuqiylar siyosatida ham o’z so’zini aytadigan va muhim qarorlar qabul qilishda katta ta’sirga ega ayol bo’lgan. Xususan, 1058-yilda Buvayhilar(Buvayhilar davlati 932-1055-yillarda Eronda mavjud bo’lgan. 1055-yilda

[104] İ. Kafesoğlu, Harezmşahlar, s. 34
[105] Z. Kitapçı, Türk ve Selçuklu Hatunları, s. 263.
[106] TDV İslam Ansiklopedisi, cilt: 16, sayfa: 499
[107]Ebû’l-Ferec, Abû’l-Farac Tarihi, (Suryanca’dan İngilizce’ye çev.: Ernest A. Wallis Budge, İngilizce’den Türkçe’ye çev.: Ömer Rıza Doğrul), Ankara, 1987, II. Baskı, c.I, s. 315.

To’g’rulbek tomonidan bu davlatga barham berilgan.) sulolasidan bo’lgan Arslon Basosiri To’g’rulbekning amakivachchasi Ibrohim Yinal (Yusuf Yinalning o’g’li) bilan yashirincha To’g’rulbekka qarshi ittifoq tuzadilar. Buning natijasida Ibrohim Yinal qo’zg’olon ko’tarib, Saljuqiylar taxtini egallash maqsadida poytaxt Hamadon sari yuradi. Bu orada Nusaybinda (hozirgi Turkiya hududidagi qadimiy shahar) bo’lgan To’g’rulbek, vaziyatdan xabar topgan zahotiyoq Hamadon tomon otlanadi. U Ibrohim Yinalning o’zidan oldin shaharga kirib, u yerdagi turkman qabilalari sardorlarini o’ziga bo’ysundirishdan, shahardagi sulton xazinasini, mol-mulkini, qurol-yarog’larini qo’lga olishdan qo’rqib, vaqtni boy bermay yo’lga chiqadi. To’g’rulbek o’zi rejalashtirganidek, Ibrohim Yinaldan oldin Hamadonga yetib borib, xazinalari va qurol-yarog’larini qo’lga olgan edi. Biroq Ibrohim Yinal mintaqadagi turkman qabilalarini o’zi tomonga og’dirib ularning harbiy yordamiga ega bo’ladi va o’zi bilan oz sonli qo’shini bo’lgan To’g’rulbekni Hamadon yaqinida yengadi. To’g’rulbek Hamadon qal’asiga berkinib, vaziri Amidulmulk Kundoriy va xotini Oltunjon xotundan yordam uchun qo’shin yuborishlarini so’radi. Eri To’g’rulbek va Saljuqiylar davlati og’ir ahvolda qolganini bilgan Oltunjon xotun darhol chora ko’rmoqchi bo’ldi. Biroq xalifa Saljuqiylar qo’shini Bag’dodni tark etsa, mamlakat himoyasiz qoladi va bu holatda Arslon Basosiri xalifalikka yana xavf tug’diradi, deb Oltunjon xotunga saljuqiy askarlari bilan Bag’doddan ketishga ruxsat bermadi. Boshqa tomondan, Amidulmulk Kundoriy ham Oltunjon xotunni Hamadonga borish fikridan voz kechishga majbur qildi. Lekin Amidulmulk Kundoriyni maqsadi boshqa edi. U Oltunjon xotunning xorazmshoh Horundan bo’lgan o’g’li Anushervonni saljuqiylar taxtiga olib chiqmoqchi bo’ladi. Bu haqida u xalifa bilan ham maslaxatlashadi. Xalifa buni hozircha sir tutishni buyuradi. Bundan xabar topgan Oltunjon xotun vazir Amidulmulk Kundoriy va o’g’lini hibsga olishni buyuradi. Ammo ular Hilla(Iroqning markazida Frot daryosi bo’yida joylashgan shahar) hokimi Dubays huzuriga qochadi. Shundan so’ng Bag’doddagi saljuqiy askarlarini yig’ib poytaxt Hamadon sari yuradi. Bu orada Chag’ribekning o’g’illari Kavurd, Yoquti va Alp Arslan To’g’rulbekni, Ibrohim Yinalning ukasi Ertoshning o’g’illari Ahmad va Mahmud amakilarini qo’llab-quvvatlash uchun kelishyotgandi[108]. To’g’rulbek yordamga kelganlar, ayniqsa Altunjon xotun yordami bilan Ibrohim Yinalni mag’lub eta oldi.

Oltunjon xotun siyosiy kurashlarda ko’rsatgan jasorati uchun u tarixda “davlatni qutqargan ayol” sifatida qoldi. Davlat taqdiri uchun o’g’liga ham rahim qilmay uni zindonga tashlatadi. Oltunjon xotun uzoqni ko’ra bilgan siyosatchi, umrini davlatning mustahkamlashga sarflagan ayol bo’lganini umrining so’nggi daqiqlarida ham ko’rsatdi. Oltunjon xotun o’limi chog’ida To’g’rulbekka shunday vasiyat qiladi: “Xalifaning qiziga uylanish uchun nima kerak bo’lsa, qiling! Shunday qilib, ham

[108] M.Altay Köymen, Tuğrul Bey ve Zamanı, s. 63.

dunyoda, ham oxiratda saodatga erishasiz”. Oltunjon xotun o’z boyligini xalifaning qiziga to’y sovg’asi sifatida hadya qilgan[109]. Ammo bundan ko’zlangan asosiy maqsad davlatni mustahkamlash bo’lgan.

Oltunjon xotun juda dindor, aqlli bo’lgan va kambag’allarga ko’p sadaqa berib, ko’p foydali va xayrli ishlar qilgan. U Tug’rulbekning suyukli rafiqasi, davlat ishlarida asosiy yordamchisi va maslahatchisi bo’lgan[110]. U istisqo kasali bilan Zinjonda (Shimoliy Erondagi shahar) vafot etgan va Rayga dafn etilgan.

Xulosa qilib aytganda Oltunjon xotunning Saljuqiylar davlati siyosiy hayotida o’rni katta bo’lgan. Oltunjon xotunning say-harakatlari natijasida Saljuqiylar davlati yanada kuchaygan. Oltunjon xotun siymosida jasur, dono va sadoqatli ayol timsolini ko’rishimiz mumkin.

[109] Ayşe Dudu Kuşçu, Selçuklu Devlet Yönetiminde Kadının Yeri ve Altuncan Hatun Örneği, s. 180
[110] Ali Sevim, Makaleler, c.II, (Miratüz-Zaman/Tuğrul Bey Dönemi), s. 130